

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 20 noyabrdagi 4054-sonli «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida fuqarolarining muddatli harbiy xizmatni o'tash shart - sharoitlarini takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni ijrosini ta'minlash hamd

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

VAZIRLAR KYeNGASHINING QARORI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 20 noyabrdagi
4054-sonli «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida fuqarolarining muddatli harbiy xizmatni o'tash shart - sharoitlarini
takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni ijrosini ta'minlash hamda fuqarolarni 2016 yilgi muddatli harbiy, safarbarlik chaqiruv
rezervi xizmatiga chaqiruvga tayyorgarlik ko'rish haqida**

Qurolli Kuchlar tarkibini intellektual salohiyatli, axloqiy-ruhiy jihatdan yetuk, yuksak bilimli va jismonan baquvvat chaqiruvchilar bilan butlash hamda fuqarolarni 2016 yilgi muddatli harbiy va safarbarlik chakiruv rezervi xizmatiga chaqiruvga tayyorgarlik ko'rish tadbirlarini sifatli o'tkazish maksadida,

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **Qaror qiladi:**

1. Fuqarolarni 2016 yilgi muddatli harbiy va safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatiga chaqiruvga tayyorgarlik ko'rish tadbirlar rejasi 1- ilovaga va chaqiruv yoshidagi fuqarolarning muddatli harbiy xizmatga sog'ligi bo'yicha oldindan sifatli saralab olish uchun Respublika doimiy tibbiy komissiyasi tarkibi 2- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Nukus shahar va tumanlar hokimliklariga:

joriy yilning 3 avgust kundan boshlab mudofaa ishlari bo'limlari mansabdor xodimlari bilan birgalikda mahalla va qishloq fuqarolar yig'inlari hududlariga chiqib chaqiruv yoshiga to'lgan fuqarolarni 2016 yilgi muddatli harbiy va safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatiga saralash uchun o'rganish tadbirlarini amalga oshirish;

joriy yilning 1 sentyabr kuniga qadar muddatli harbiy va safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatiga chaqirish uchun chaqiruv punktlarini tayyorlash;

Nukus shahar va tumanlar chaqiruv punktlarini kerakli bo'lgan texnik xodimlar, avtoullovlar, aloqa vositalari, anjomlar va jihozlar bilan ta'minlash;

chaqiruluvchilarni chaqiruv punktidan Respublika yig'in punktigacha olib borish va olib ketishda yo'l harakati xafsizligini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 21 fevraldagi 95-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy guvohlantirish yo'riqnomasi"ni tasdiqlash hamda 2009 yil 9 apreldagi 103-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy guvohlantirish yo'riqnomasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarorlariga asosan chaqiruv punktlarini tibbiy anjomlar, asbob-uskunalar bilan talab darajasida jihozlash, shuningdek tibbiy komissiyalarining samarali ishlashi, chaqiruluvchilarni tibbiy ko'rikdan sifatli va xolisona o'tkazilishini ta'minlash yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqib, ijrosini qat'iy nazoratga olish;

joylardagi chakiruv punktlarida muddatli harbiy va safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatiga saralab olish ishlarini tashkillashtirish;

fuqarolarni 2016 yildagi navbatdagi chaqiruvga, chaqiruluvchilarni o'rganib chiqish jarayonida joylardagi mahalla, qishloq fuqarolar yig'ini raislari, profilaktika inspektorlari va qishloq vrachlik punktlari shifokorlari mudofaa ishlari bo'limlari bilan birgalikda, chaqiruluvchilarning oilaviy sharoitlarini, dunyoqarashlarini o'rganish, ularning vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otish, chaqiruluvchilarning huquqlari va majburiyatlarini tushuntirilishiga, muntazam ravishda amaliy yordam ko'rsatish;

muddatli harbiy xizmatga saralab olingan chaqiruluvchilardan jismoniy tayyorgarlik normativlarini tanlov mezonlari asosida qabul qilish komissiyasi tarkibini tuzish;

O'zbekiston Respublikasi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonuning 45-moddasiga asosan, qishloq fuqarolar

yig'inlari, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan birgalikda chaqiriluvchilarni chaqiruv punktiga chaqirish va ularning kelishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Cog'liqni saqlash vazirligi (D. Xodjiev)ga:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil

21 fevraldagi 95-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy guvohlantirish yo'riqnomasi"ni tasdiqlash hamda 2009 yil 9 apreldagi 103-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy guvohlantirish yo'riqnomasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarorlariga asosan chaqiruv punktlarini tibbiy anjomlar, asbob-uskunalar bilan talab darajasida jihozlash, shuningdek tibbiy komissiyalarining samarali ishlashi, chaqiriluvchilarni tibbiy ko'rikdan sifatli va xolisona o'tkazilishini ta'minlash yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqib, ijrosini qat'iy nazoratga olish;

joriy yilning 10 avgust kuniga qadar ruxiy kassaliklar, sil kasalligiga qarshi, teri-tanosil va narkologiya dispanserlarida hisobda turgan 1989-1998 yilda to'g'ilgan fuqarolarning ro'yxatini o'z vaqtida mudofaa ishlari bo'limlariga yetkazish;

tibbiy ko'rikdan o'tkazish jarayonida kasalligi aniqlangan chaqiriluvchi yoshlarni o'z vaqtida davolash va sog'lomlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun Respublika, Nukus shahar va tumanlar tibbiyot birlashmalarida 7-10 ta o'rinlar (koykalar) ajratilishini ta'minlash;

2016 yildagi navbatdagi chaqiruvga, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va boshqa vazirliklarning rejimli komandalari oldindan saralash ishlari davrida joylardagi chaqiruv punktlariga asosiy ish joyi saqlangan holda, Respublika doimiy tibbiy komissiyasi, Nukus shahar va tumanlar tibbiy chaqiruv komissiyalarining ishiga turli ixtisoslikka ega bo'lgan oliy va yuqori toifaga ega bo'lgan malakali shifokorlar jalb etish, tibbiy birlashma bosh shifokorlarining mas'uliyatini yanada oshirish choralarini ko'rish;

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hamda boshqa vazirliklarning rejimli komandalari chaqiriluvchilarni sog'ligi bo'yicha oldindan sifatli saralash uchun Respublika doimiy tibbiy komissiyasi, Nukus shahar va tumanlar tibbiy chaqiruv komissiyalarining ishini joriy yilning 3 sentyabr kundan 25 dekabr gacha belgilash topshirilsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (Q. Berdiyev)ga:

joriy yilning 5 sentyabr kundan O'zbekiston Respublikasi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida" gi Qonunining 45-moddasiga muvofiq, mudofaa ishlari bo'limlari tomonidan taqdim etilgan ro'yxatlariga asosan chaqiruv punktlariga o'z vaqtida kelmagan fuqarolarni olib kelinishini yuz foizga ta'minlash choralarini ko'rish;

Respublika yig'in, Nukus shahar va tumanlar chaqiruv punktlarida, fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga saralash ishlari jarayonida jamoat tartibini saqlashni ta'minlash;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi xodimlari hamrohligida chaqiriluvchilarni tumanlar chaqiruv punktidan Respublika yig'in punktiga olib borish va olib ketishda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash;

jinoiy javobgarlikka tortilgan va tergov ishlari olib borilayotgan, diniy oqimlar hisobida turgan chaqiriluvchilarning ro'yxatini mudofaa ishlari bo'limlariga belgilangan muddatda taqdim etish topshirilsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (D.Utarbaev)ga:

chaqiriluvchilarning ma'naviy va ruhiy holatlarini aniqlash hamda muddatli harbiy xizmatga ruxiy kamchiligi bo'lgan chaqiriluvchilarning jo'nab ketishining oldini olish maqsadida Respublika yig'in punkti tibbiy ko'rigida ishtirok etish uchun malakali psixolog mutaxassis ajratish;

chaqiriluvchilarni ma'naviy-ruxiy fazilatlarini va intellektual rivojlanish saviyasini oshirish bo'yicha Respublika yig'in punktini axborot - resurs markazidan badiiy asarlar, jurnal va gazetalar bilan ta'minlash topshirilsin.

6. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha bo'limi (B.Utemuratov) va «Qoraqalpog trans» AJ (B.Nietullaev) chaqirilishi lozim bo'lgan chaqiriluvchilarni Respublika yig'in punktiga o'z vaqtida to'liq, olib kelish va o'z manzillariga olib ketish uchun tumanlar mudofaa ishlari bo'limlari bilan ikki tomonlama tuzilgan shartnomaga asosan avtobus ajratsinlar.

7. O'zbekiston Respublikasi Davlat test markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha vakili (B.Jarekeshov) Qoraqalpog'iston Respublikasi Mudofaa ishlari boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan jadval asosida chaqiriluvchilarni test sinovlaridan to'liq o'tkazsin.

8. "Qoraqalpog'elektrtamoqlari hududiy korxonasi" OAJ (S.Avezov), "Shimoligazta'minot" UK (A.Qudaynazarov), "Tuyamuyun - Nukus" mintaqaviy suv o'tkazish va foydalanish boshqarmasi (R.Seytov) Respublika yig'in punkti va joylardagi chaqiruv punktlarida chaqiruvga tayyorgarlik mavsumini sifatli o'tkazish maqsadida elektr energiya, suv va gaz ta'minoti bilan uzluksiz ta'minlash choralarini ko'rsinlar.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi Teleradiokompaniyasi (Q.Nagmetov), Matbuot va axborot agentligi (A.Xojamuratov) chaqiriluvchilarni muddatli harbiy xizmatga tayyorgarlik ishlarini, chaqiriluvchilarni saralash, sinovlaridan o'tish nizomini, muddatli harbiy xizmatchilarga xizmat vaqtida va xizmatdan keyin beriladigan imtiyozlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

10. Qoraqalpog'iston Respublikasi Mudofaa ishlari boshqarmasi (B.Begabaev), Madaniyat va sport ishlari vazirligi (M.Aytiniyazov), Sog'liqni saqlash vazirligi (D.Xodjiev), "Kamolot" Yo'li Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi (A.Daniyarov), "Mahalla" xayriya jamoat fondi (X.Yelmuratov) va Davlat test markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha vakili (B.Jarekeshov):

joylarda fuqarolarni 2016 yildagi navbatdagi chaqiruvga tayyorgarlik ishlarini samarali tashkil etsinlar;

chaqiriluvchilarning sifatli va holisona tibbiy ko'rikdan o'tkazilishini, ularning ma'naviy-ruxiy fazilatlarini va intellektual rivojlanish saviyasini

qonunchilikda belgilangan tanlovning harbiy-kasbiy mezonlariga muvofiq ravishda o'rganib chiqilishini ta'minlasinlar.

11. Nukus shahar hokimligi (J.Opaev) Nukus shahrida joylashgan korxon va tashkilotlardan joriy yilning 1 iyun kundan 30 dekabrgacha Qoraqalpog'iston Respublikasi yig'in punktiga Nukus shahar mudofaa ishlari bo'limi orqali obodonlashtirish va tozalikga rioya qilish uchun 6 nafar texnik xodimlarni ajratsin.

12. Qoraqalpog'iston Respublikasi Mudofaa ishlari boshkarmasi (B. Begabaev):

joriy yilning 3 avgust kundan boshlab Nukus shahar va tumanlar mahalla (ovul) fuqarolar yig'inlari hududidagi muddatli harbiy, xizmatga chaqirishga layoqatli bo'lgan 1989-1998 yillarda to'g'ilgan fuqarolarni mudofaa ishlari bo'limlari harbiy xizmatchilari va xizmatchilari tomonidan o'tkaziladigan o'rganish tadbirlarini nazoratga olsin;

chaqiriluvchilarning oilaviy sharoitlarini o'rganish, ularning dunyoqarashlarini hamda harbiy xizmatga yaroqliligini tekshirish maqsadida joriy yilning avgust oyida Respublika yig'in, Nukus shahar va tumanlar chaqiruv punktlari doimiy tibbiy komissiyasi a'zolari, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari bilan ko'rgazmali mashg'ulot o'tkazsin;

har bir chaqiriluvchining salomatlik darajasi, bilim doirasi intellektual qobiliyati, oilaviy sharoiti va ruxiy beqarorlik darajasi bo'yicha tekshiruv o'tkazilib, yuqori ball to'plagan chaqiriluvchilar muddatli harbiy xizmat safiga belgilansin;

tasdiqlangan jadval asosida muddatli harbiy xizmatga saralab olingan chaqiriluvchilardan jismoniy tayyorgarlik sinovlarini joriy yilning 22 dekabr kundan 2016 yil 15 yanvar kunga qadar Nukus shahar va tumanlarda belgilangan sport maydonchalarida qabul qilishni ta'minlasin.

13. Mazkur qarorning bajarilishi ustidan nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari M.Mamutov zimmasiga yuklatilsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

B.Yangibaev

Nukus shahri

2015 yil, 8 iyun

№134

Kelishilgan:

J.Yembergenov

J.Sadikov

M.Mamutov

D.Xodjiev

M.Aleuov

B.Begabaev

Z.Ibragimova

M.Djumaniyazov

A.Tajetdinov

J.Narymbetov

J.Idiyatullaev

2016 yilgi muddatli harbiy, safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatga

sifatli tayyorgarlik ko'rish bo'yicha tadbirlar rejasi

t/r	Tadbirlar	Bajarilish muddati	Mas'ullar
1	2	3	4
1	Respublika yig'in, shahar va tumanlar chaqiruv punktlarini navbatdagi 2016 yildagi muddatli harbiy xizmat va safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatiga tayyorlash.	2015 yil 10 avgustgacha	Shahar va tumanlar hokimliklari
	Respublika yig'in, shahar va tumanlar chaqiruv punktlarini tabiiy gaz, suv va elektr manbaalari bilan doimiy ravishda ta'minlab turish.	Tayyorgarlik davrida	QAO «Qqelektrtarmoqlari», "Shimoligazta'minot" UK, "Tuyamuyun - Nukus" mintaqaviy suv o'tkazish va foydalanish boshqarmasi
	Respublika yig'in, shahar va tumanlar chaqiruv punktlarini aloqa vositalari, dori-darmonlar, tibbiyot va xo'jalik mol-mulki, avtomobil transporti, texnik xodimlar hamda kerakli asbob-uskunalar bilan ta'minlash.	2015 yil 15 avgustgacha	Shahar va tumanlar hokimliklari, «Korakalpoqtrans» AJ
2	Mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan chaqiriluvchilarni chaqiruv punktlariga chaqiruv qog'ozlariga asosan 100 foiz chaqirib berishlarini nazoratga olish.	Doimiy	Shahar va tumanlar hokimliklari
	Chaqiriluvchilarni shahar va tumanlar chaqiruv uchastkalaridan Respublika yig'in punktiga olib kelish va ketishda yo'l harakati xavfsizligini yo'l patrul xizmati xodimlari kuzatuvida ta'minlash.	Tayyorgarlik davrida	«Korakalpoqtrans» AJ, Ichki ishlar vazirligi
	Respublika yig'in, shahar va tumanlar chaqiruv punktlarini infostukturasini va hududini sovuq davrini hisobga olgan holda chaqiruvdan oldin ta'minlash.	2015 yil 15 avgustgacha	Shahar va tumanlar hokimliklari
	Tayyorgarlik davrida chaqiriluvchilar va ularning ota onalari bilan targ'ibot va tashviqot ishlarini va ularga O'zbekiston Respublikasining chaqiruvga bog'liq bo'lgan Qonun va qarorlarini mohiyatini doimiy ravishda tushuntirish ishlarini olib borish.	Tayyorgarlik davrida	«Mahalla» xayriya jamoat fondi, «Kamolot» YoIH
3	Tayyorgarlik davrida keng qamrovli, O'zbekiston Respublikasining chaqiruvga bog'liq bo'lgan Qonun, Qarorlar va Mudofaa vazirining buyruqlarini mohiyatini doimiy ravishda yoshlar o'rtasida televidenie va radio orqali tushuntirish ishlarini olib borish.	Tayyorgarlik davrida	QR teleradiokompaniyasi, Matbuot va axborot agentligi
	Gazeta va jurnallar orqali chaqiriluvchilar uchun muddatli harbiy va safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga chaqirish uchun o'tiladigan sinovlar, imtixonlardan o'tish lozimligi va muddatli harbiy xizmatdan keyin qanday imtiyozlar berilishi haqida keng qamrovli targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish.	Har oy	QR Matbuot va axborot agentligi
4	Chaqiruvdan oldin shahar va tumanlar mudofaa ishlari bo'limlariga sud, ichki ishlar va prokuraturalardan Qonun buzarlik bo'yicha hisobda turgan hamda sudlangan chaqiruvchilarning ro'yxatlarini taqdim qilish.	2015 yil 15 avgustgacha	QR Ichki ishlar vazirligi

	Tayyorgarlik davrida Respublika yig'in, shahar va tumanlar chaqiruv punktlarini jamoat tartibini saqlash ishlarini olib borish.	Tayyorgarlik davrida	QR Ichki ishlar vazirligi
5	Bosh tortgan hamda sababsiz chaqiruv punktlariga kelmagan chaqiriluvchilarni chaqiruv punktlariga, shahar va tumanlar mudofaa ishlari bo'limi ro'yxatiga asosan 100 foiz chaqirib berishini ta'minlash.	Tayyorgarlik davrida	QR Ichki ishlar vazirligi
	Tayyorgarlik davrida shahar va tumanlar davolash muassasalariga sog'ligi bo'yicha tuman mudofaa ishlari bo'limi tomonidan yo'llanma bilan yuborilgan chaqiruvchilarni o'z vaqtida davolash ishlarini olib borish.	Doimiy ravishda	QR Sog'liqni saqlash vazirligi
	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 95-sonli qaroriga asosan Respublika yig'in, shahar va tumanlar chaqiruv punktlarini dori- darmonlar, tibbiyot va xo'jalik mol-mulki hamda oliy va 1-toifali shifokor mutaxassislar bilan ta'minlash.	2015 yil 15 avgustgacha	QR Sog'liqni saqlash vazirligi
	Tibbiy komissiyasi tarkibini qayta ko'rib chiqish va ularni mutaxassisligi, malakasi, tajribasi bo'lgan tibbiy xodimlar bilan ta'minlash. Chaqiriluvchilarni tibbiy ko'rik o'tkazish jarayonida adolatlilik va holislikni ta'minlash uchun tibbiy komissiya shifokorlarning mas'uliyatini oshirish.	Doimiy ravishda	QR Sog'liqni saqlash vazirligi
6	Tibbiy ko'rik o'tkazishdan oldin tibbiy komissiyalar tarkibi bilan chaqiruvchilarni tibbiy guvohlashtirish masalalari bo'yicha bir kunlik metodik mashg'ulotlar o'tkazish.	2015 yil 20 avgustgacha	QR Sog'liqni saqlash vazirligi
	Chaqiruvdan oldin Respublika yig'in, shahar va tumanlar mudofaa ishlari bo'limlariga davolash muassasasi hamda dispanserida sog'ligi bo'yicha hisobda turgan chaqiriluvchilarning ro'yxatlarini taqdim qilish.	2015 yil 15 avgustgacha	QR Sog'liqni saqlash vazirligi
7	2015 yilda kollej va litseylarni bitirgan yoshlarga Respublikamizda o'tgan yillar mobaynida qabul qilingan harbiy sohaga oid Qonun va Qonun osti hujjatlar, amalga oshirilayotgan islohatlar mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga singdirish.	Doimiy ravishda	QR Vazirlar Kengashining kotibiyati, «Kamolot» YoIH Kengashi
8	2016 yil muddatli harbiy xizmatga tayyorgarlik ishlarini nazoratga olish.	Doimiy ravishda	Chaqiruv komissiyalari raislari
9	Yuqorida ko'rsatilgan ishlar yuzasidan chiqarilgan Qaror va buyruq nusxalarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga taqdim qilish.	2015 yil 30 avgustgacha	Shahar va tumanlar hokimliklari

**Chaqiruv yoshidagi fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga sog'ligi bo'yicha
oldindan sifatli saralab olish uchun Respublika doimiy tibbiy komissiyasi**

T A R K I B I

- | | | | |
|-----|------------------|---|--|
| 1. | Dalymbetov T. | - | Oliy toifali jarroh shifokori, doimiy tibbiy komissiyasining katta vrachi Respublika o'smirlar dispanseridan. |
| 2. | Saparniyazova K. | - | Oliy toifali nevropatolog doimiy tibbiy komissiyasining shifokori, Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam markazidan. |
| 3. | Allamuratova S. | - | 1-toifali doimiy tibbiy komissiyasining shifokori, ko'z shifokori, Respublika ko'z kasalliklari shifoxonasidan. |
| 4. | Toreniyazov M. | - | Oliy toifali jarroh doimiy tibbiy komissiyasining shifokori, Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam markazidan. |
| 5. | Menlimuratova S. | - | Oliy toifali psixiatr-narkolog doimiy tibbiy komissiyasining shifokori Respublika ruhiy va kasalliklari dispanseridan. |
| 6. | Mambetova G. | - | Oliy toifali doimiy tibbiy komissiyasining quloq-burun shifokori, Nukus shahri 3-sonli poliklinikasidan. |
| 8. | Polvaniyazova E. | - | 1- toifali doimiy tibbiy komissiyasining teri - tanossil shifokori, Respublika teri-tanossil kasalliklari dispanseridan. |
| 9. | Inaeva O. | - | 1- toifali doimiy tibbiy komissiyasining tish shifokori, Respublika bolalar tish poliklinikasidan. |
| 10. | Nurgazieva A. | - | 1- toifali doimiy tibbiy komissiyasining kardiolog shifokori, Respublika kardiologiya dispanseridan. |
| 11. | Kazakbaeva G. | - | Doimiy tibbiy komissiyasining kotibi Respublika ko'p tarmoqli tibbiyot markazi xamshirasi. |

Ko'rib chiqildi:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va
tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar
va tuman hokimliklari](#)

Hujjatlar Respublika
mehmonlariga Elektron
hukumat Interaktiv davlat
xizmatlar